



TOSHLOQ TUMANI GEOGRAFIK O'RNI, TABIATI VA IQTISODIYOTI

Samiyev Uchqun Abdullajonovich

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Jabborov Xudoyberdi Gapar o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Eshimova Feruzaxon Dilmurodjon qizi

Andijon Davlat pedagogika Instituti talabasi

Annatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona viloyati Toshloq tumanining geografik o'rni, kelib chiqishi, mamuriy tuzilishi, aholisi hamda zichligi, tumaning xo'jalikdagi ahamiyoti va yer maydonlarining bandlik ko'rsatkichlariga to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga ushbu hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va korxonalar tashkilotlar haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Toshloq tumani, geografik o'rni va xususiyatlar, mamuriy tuzilishi, iqlimi, o'simlik va hayvonot olami, aholisi, korxonalari, qishloq xo'jaligi.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется географическому положению, происхождению, административной структуре, численности населения и плотности населения Тошлокского района Ферганской области, значению района в экономике, а также показателям занятости земельных площадей. Вместе с тем была дана информация о производстве сельскохозяйственной продукции и предприятиях в этой сфере.


Ключевые слова: Тошлокский район, географическое положение и особенности, административная структура, климат, растительный и животный мир, население, предприятия, сельское хозяйство.

Kirish: Toshloq tumani- Farg'ona viloyatida joylashgan tuman hisoblanadi. Toshloq tumani 1935-yilda tashkil etilgan va 1959-yilda Oxonboboyev tumaniga birlashtirilgan. 1973-yil 12-aprelda qayta tiklangan. G'arbdan Marg'ilon shahri, shimoli-g'arbdan Q'shtepa, Yozyavon tumanlari, sharqdan quva tumani, janubi-sharqdan Quvasoy shahri va shimoli-sharqdan Andijon viloyati Bo'z tumani bilan chegaradosh. Maydoni 0,24 ming km². Aholisi 208,7 ming kishi, shundan shahar aholisi 48,2 ming kishi, qishloq aholisi esa 160,4 ming kishi [2021-yil 1-oktabr].

Tumanda 1-ta shaharcha [Toshloq] 51 ta Maxalla fuqarolar yeg'ini mavjud bo'lib ular quyidagilar. 1-Nayman, 2-Chek, 3-Istiqlol, 4-Xonariq, 5-Mehnatobod, 6-Naymanboston, 7-Quyiyakatut, 8-Soy boyi, 9-Ucholish, 10-Guzarbioshi, 11-Xo'jaariq, 12-Zarkent, 13-Yangi yo'l, 14-Yuqariqishloq, 15-chuqurqishloq, 16-Jarqishloq, 17-Turvat, 18-Qumariq, 19-Obisiyo, 20- Farog'at, 21-Qumqishloq, 22-Sadda, 23-Teraktagi, 24-Konizar, 25-Katta ko'cha, 26-So'filar, 27-So'kchilik, 28-



Axshak, 29-Xotinqumi, 30-Yakkatut, 31-Axshakguzar, 32-Qangirg'a, 33-Tog'liq, 34-Arabmazor, 35-Ko'lariq, 36-Xonaqa, 37-Besarang, 38-Aylanmajar, 39-Toshloq, 40-Shodlik, 41-Furqat, 42-Do'stlik, 43-Suvboshi, 44-Qamchipurush, 45-Qo'rg'oncha, 46-Piyozchilik, 47-Xamrak, 48-Varzak, 49-Qipchariq, 50-O'zbekiston, 51-Bo'ston. Tuman markazi -Toshloq shaxarchasi. Toshloq tumanini degiz satxidan mutloq balandligi 300-500 metr atrofida, eng baland choqqisi esa 484 metr xisoblanadi[1].



Tabiati - Toshloq tumanining yer yuzasi, asosan tekisliklardan iborat bo'lib, janubdan shimolga tomon pasayib boradi va shimolda Farg'ona chollariga tutashib ketadi. G'arbiy qismida qumliklar bor, iqlimi kontinental. Yanvarning o'rtacha tempeturasi 0 – 2, eng past temperaturasi esa - 27, iyul oyining o'rtacha temperursi 28, eng yuqori temperaturasi 44C.

Vegetatsiya davri 210-215 kun. Yillik yogin miqdori 200mm atrofida. Yog'inning asosiy qismi Qish va Baxor oylarid yog'adi. Ko'pincha g'arbiy shamollar [Bekobod shamoli] esib turadi. Bazan, tog'lardan sharqiy va janubiy-sharqiy yo'nalishida quruq va iliq shamol esadi. Asosiy daryosi – Isfaramsoy. Janibidan shimolga oqib o'tadigan Yozyavonsoy ham sug'orishda muhim axamiyatga ega. Tuman hududining shimoliy qismidan sharqdan g'arbgga tomon Katta Farg'ona kanali oqib o'tadi. Tuproqlari asosan bo'z tuproq, shimolda allivual o'tloq va sho'r tuproqlar ham bor. Yovvoyi o'simliklardan; ajriq, ituzim, sho'ra,



qo'ytikan, bangidevona, otquloq, zubturum, momaqymoq, yulg'un, yalpiz, yantoq, kurmak, pechak, semiz o't, oqmiyya, gulhayri, saksavul, tuya paypoq, na'matak, do'lana va boshqalar o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan sudiralib yuruvchilar [echkiemar, charx ilon, kaltakessaklar] kemiruvchilar [qumsichqonlar, qo'shoyoq, yumronqoziq] qushlardan [chumchuq, musicha, bedana, jiblachibon, qarqunoq, ko'rshapalak, so'fito'rg'ay, qirg'iy, qaldirg'och, ko'kqarg'a, bulbul, sa'va, qizilishton, o'rdak, laylak, zarg'aldoq, sassiqpopishak va boshqalar bor. Soy va kanallarda onda sonda ondatiralar uchraydi[2].

Xo'jaligi — Tumanda paxta tozalash zavodi, tikuvchilik fabrikasi, MTP, qurilish tashkilotlari, avtokorxonalar bor. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i — paxtachilik. Pillachilik, chorvachilik, g'allakorlik, poliz va sabzavotchilik ham rivojlangan. Tumanda 11 shirkat xo'jaligi mavjud. Toshloq tumani ekin yerlariga paxta, don, sabzavot, poliz, beda, lavlagi ekiladi. Tuman jamoa va shaxsiy xo'jaliklarida qoramol, qo'y va echki, parranda boqiladi.

Tumanda 50 ga yaqin umumiy ta'lim maktabi, kutubxonalar, madaniyat uylari, klub muassasalari, muzeylar ishlab turibdi. Markaziy kasalxona va uning bo'limlari, poliklinika, tug'ruqxona, tibbiy punktlar faoliyat ko'rsatadi. Tuman markazi va Farg'ona shahri hamda tumandagi yirik qishloqlar orasida avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yilgan [3].

1-jadval

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

	<i>2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'm</i>		
	<i>O'zbekiston Respublikasi</i>	<i>Farg'ona viloyati</i>	<i>Toshloq tumani</i>
Sanoat	459 919,7	23 944,6	1 775,2
o'sish sur'ati, %da	105,7	103,6	80,1
Iste'mol tovarlari	132 992,6	5 279,3	311,4
o'sish sur'ati, %da	107,7	101,3	79,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik	292 729,2	27 210,5	1 639,2
o'sish sur'ati, %da	104,1	103,3	102,3
Asosiy kapitalga investitsiyalar	226 638,6	14 068,1	981,4
o'sish sur'ati, %da	111,8	118,2	158,1
Qurilish ishlari	107 793,3	7 205,6	308,1
o'sish sur'ati, %da	105,6	112,7	110,3
Chakana tovar aylanmasi	205 082,3	16 699,7	347,4
o'sish sur'ati, %da	107,0	106,2	102,4
Jami xizmatlar	329 201,5	19 061,9	495,3
o'sish sur'ati, %da	112,1	106,9	109,5
Eksport, mln. AQSh. Dollari	17 739,4	523,5	42,5




o'sish sur'ati, %da	123,5	81,8	48,6
Import, mln. AOSh. Dollari	27 014,8	964,4	67,5
o'sish sur'ati, %da	121,2	104,2	121,3

Korxonalar va tashkilotlar yagona registr ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar (*dehqon va fermer xo'jaliklarisiz*) soni 2 852 tani tashkil qilib, shundan 2 041 tasi yoki 71,6 %i faoliyat ko'rsatmoqda.

Yil boshidan jami 398 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, 104 ta korxonalar va tashkilotlar tugatilgan. 2023- yil yanvar-sentabr oylari davomida tuman bo'yicha yangi tashkil etilgan va tugatilgan korxonalar va tashkilotlar soni Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 1 077 ta (37,8 %), sanoat 570 ta (20,0 %), boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish 433 ta (15,2 %), qurilish 184 ta (6,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 244 ta (8,6 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 116 ta (4,1 %) sohalariga to'g'ri keladi[4].

1-Diagramma. 2023- yilning 1 - oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (*dehqon va fermer xo'jaliklarisiz*) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da



Faoliyat ko'rsatayotgan (*dehqon va fermer xo'jaliklarisiz*) korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 2 041 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 355 taga ko'paygan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 37,0 % savdo, 18,6 % sanoat, 6,7 % qurilish, 3,8 % yashash va



ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,8 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,6 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 18,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning ulushi 71,6 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 28,4 %ni tashkil etdi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga Toshloq tumanida jami 270 ta oilaviy korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, faoliyat ko'rsatayotganlari esa 176 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 77 taga kamaygani kuzatilgan[5].

2-jadval. Oilaviy korxonalar haqida ma'lumot

<i>Hududlar</i>	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>01.10.2022- yil</i>	<i>01.10.2023- yil</i>	<i>01.10.2022- yil</i>	<i>01.10.2023- yil</i>
Farg'ona viloyati	6 945	7 595	6 471	5 004
Toshloq tumani	267	270	253	176
viloyatdagi ulushi, %	3,8	3,6	3,9	3,5

Toshloq tumanida ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalarining viloyatda tutgan ulushi 3,6 %ga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 0,2 %ga kamaygan, mos ravishda faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining viloyatdagi ulushi 0,4 %ga kamayib, 3,5 %ni tashkil etgan. Yil boshidan 17 ta oilaviy korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, ushbu vaqtgacha 9 ta oilaviy korxonalar tugatilgani kuzatish mumkin.

Xulosa: Toshloq tumani Farg'ona viloyatining nisbatan qulay joyida joylashganligi uchun odamlar qiynalmasdan dexqonchilik qilishlari mumkin. Tumanni Farg'ona, Marg'ilon, Quvasoy, Qoshtepa, va boshqa shahar va tumanlar bilan chegaradoshligi import va eksport xajmini anchagina oshiradi. Farg'ona viloyatini umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida Toshloq tumani o'rni beqiyos. Atrof-muxiti tabiati xam anchagina ifloslangan xisoblanadi, chunki unga yondosh shaharlarda korxonalar va zavodlardan chiqayotgan zaharli moddalar ko'p. Farg'ona viloyatida aholi eng zich joylashgan hududlarni biri ham aynan shu tumanga to'g'ri keladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тошлоқ тумани ҳоқими ва ўринбосарлари ҳақида маълумот
2. ↑ „СОАТО Система обозначений административно-территориальных образований“ (deadlink). 28-avgust 2012-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 1-oktabr 2011-yil.
3. ↑ „Ташкентская область“ (ruscha) (deadlink). 27-dekabr 2010-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 1-oktabr 2011-yil.
4. <https://uz.m/wikipediya.org>.
5. Toshloq tumani statistik malumotnomasi.[2023-yil yanvar-sentabr]

